

TURON ARXEOLGIYASIDA QADIMGI AYOL OBRAZINING O'RGANILISHI

Abdug‘aniyev Ahrorjon Ahadjon o‘g‘li, O‘zFA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

STUDY OF THE ANCIENT WOMAN'S IMAGE IN TURAN ARCHAEOLOGY

Abduganiev Ahrorjon Ahadjon o‘g‘li, Junior Researcher, Institute of History, Uzbek Academy of Sciences

ИЗУЧЕНИЕ ОБРАЗА ДРЕВНЕЙ ЖЕНЩИНЫ В ТУРАНСКОЙ АРХЕОЛОГИИ

Абдуганиев Ахроржон Ахаджон оғлы, младший научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Turon (Markaziy Osiyo) arxeologiyasida ayol obrazi va unga oid diniy-madaniy tushunchalar arxeologik, ikonografik va ethnografik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Turonning qadimgi davrida yaratilgan haykalchalar, sopol idishlar, petrogliflar va diniy ramzlar orqali qadimgi jamiyatlarda ayol obrazining ilohiy, ijtimoiy va madaniy o‘rnini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Turon arxeologiyasi, ayol obrazi, ilohiy timsollar, terrakota, petrogliflar, ayol ma‘budalari.*

Abstract: *This article analyzes the image of women and the associated religious and cultural concepts in the archaeology of Turan (Central Asia) based on archaeological, iconographic, and ethnographic sources. The research explores the divine, social, and cultural significance of the female image in ancient societies through figurines, pottery, petroglyphs, and ritual symbols found in the Turan region.*

Keywords: *Turan archaeology, female image, divine symbols, terracotta, petroglyphs, female deities.*

Аннотация: В данной статье анализируется образ женщины и связанные с ним религиозно-культурные представления в археологии Турана (Средняя Азия) на основе археологических, иконографических и этнографических источников. Исследование раскрывает божественную, социальную и культурную роль женского образа в древних обществах через найденные на территории Турана статуэтки, глиняную посуду, петроглифы и культовые символы.

Ключевые слова: археология Турана, женский образ, божественные символы, терракота, петроглифы, богини.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Turon arxeologiyasida ayol obrazi va uning diniy-madaniy ahamiyati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar bu hududda qadimdan shakllangan madaniy qatlamlarning boy merosini o‘rganishga asos bo‘lgan. Ayol obrazining diniy timsollar, hosildorlik kultlari va mifologik tushunchalar bilan bog‘liqligi turli davrlarda arxeologik topilmalar orqali aniqlangan. Ayniqsa, XX asrning o‘rtalaridan boshlab, bu mavzuga oid ilmiy izlanishlar

kuchaygan. Ushbu maqola Turon hududida topilgan ayol haykalchalari, sopol idishlardagi tasvirlar, petrogliflar hamda diniy urf-odatlar orqali qadimgi jamiyatlarda ayol obrazining o‘rni va unga bo‘lgan e’tiqodlarni tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Turon arxeologiyasida qadimgi ayol obrazining o‘rganilishiga bag‘ishlangan ushbu



[https://orcid.org/0009-0002-
2428-8101](https://orcid.org/0009-0002-2428-8101)
e-mail:
[ahrorjon.abduganiev@mail.
ru](mailto:ahrorjon.abduganiev@mail.ru)

maqolada ilmiy tadqiqotning quyidagi usullaridan foydalanildi:

Arxeologik tahlil: Turon hududidagi qadimiy yodgorliklardan topilgan ayol haykalchalar (terrakotalar), sopol idishlar, petrogliflar va diniy buyumlar o'rganildi.

Komparativ (taqqoslov) usul: Turon topilmalari boshqa qadimiy madaniyatlar (Mesopotamiya, Hind vodiysi, Kichik Osiyo) bilan taqqoslandi.

Semantik va ikonografik tahlil: haykalchalar va ramzlar yuzasidagi belgilarning ma'naviy va diniy mazmuni, ularning hosildorlik, onalik, suv elementi bilan bog'liqligi tahlil qilindi.

Tarixiy va madaniy-geografik yondashuv: har bir topilma o'zining ijtimoiy-madaniy konteksti, davri va joylashgan hududi bilan bog'liq holda o'rganildi.

Etnografik materiallar tahlili: G.Snesarev, O.Gorshunova va boshqa etnologlarning ishlari asosida qadimgi ayol kultlarining keyingi davrda qanday davom etgani o'rganildi[4].

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Turon hududidan topilgan arxeologik va etnografik materiallar qadimiy jamiyatlarda ayollar timsoli faqatgina biologik yoki ijtimoiy rol bilan emas, balki ilohiy, ramziy va diniy darajada qadrlanganini ko'rsatadi. Suv ilohasi, hosildorlik ma'budas, himoyachi ayol timsollarining mavjudligi bu obrazlarning tabiat, hayot va nasl qoldirish bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi. Terrakota haykalchalarining naqshlari, semantik ifodalari, ikonografiyası Turon madaniyatlarida ayolning diniy va madaniy markaz sifatidagi mavqeini ifodalaydi[10]. Marg'iyyona, Anov, Namozgohtepa va boshqa joylardan topilgan haykalchalar orqali qadimgi odamlar uchun ayol – tabiat kuchlari, hayot boshlanishi, hosildorlik va himoya timsoli bo'lib xizmat qilgan. Etnografik tadqiqotlar (G.P.Snesarev, O.V.Gorshunova) esa bu qadimiy e'tiqodlar islom davrida ham muayyan shaklda saqlanib qolganini ko'rsatadi, bu esa madaniy uzviylik (kontinuitet) hodisasi mavjudligini bildiradi[11]. Bugungi kunda olib borilayotgan arxeologik izlanishlar va yangi topilmalar Turon hududida ayol obrazining madaniy, diniy va estetik o'rni chuqur ildizlarga ega ekanini yana bir bor isbotlamoqda.

P.M.Kojin va V.N.Sarianidining "Змея в культовой символике анауских племен" (Anov qabilalarining kult ramziyligida ilon) maqolasida Turondagi Anov madaniyati aholisining diniy

ramzlar va ular orasidagi ilonning o'rni hamda ularning ayol kulti bilan bog'liqligi haqida fikrlar yuritilgan[5].

Y.V.Antonovaning "Антропоморфная скульптура древних земледельцев Передней и Средней Азии"(Old va O'rta Osiyoda qadimgi dehqonlarning antropomorf haykali) kitobi qadimgi dehqonchilik madaniyatları tomonidan yaratilgan antropomorf haykalchalar haqida batafsil ma'lumot beradi[2]. Kitobda Turonda topilgan antropomorf (inson shaklidagi) haykalchalar, jumladan ayol haykalchalar va ularning tasnifi, haykalchalarining turli xil shakllari, uslublari va materiallari haqida ma'lumot berilgan. Bu haykalchalar tahlili orqali qadimgi odamlarning diniy e'tiqodlari, ijtimoiy tuzilmalari va kundalik hayoti haqida ham bir qator xulosalarga kelish mumkin.

Hozirgi Turkmaniston hududida arxeologik izlanishlar olib borgan fransuz olimi F.Brunetning maqolasida Turon hududidagi ayol haykalchalar ularning shakli va uslubi umumiyo ko'rinishi, naqshlari va bezaklari, yasalish texnologiyasi haqida, shuningdek, turli xil davrlarda va joylarda ayol haykalchalarining tasvirlanishidagi farqlar haqida ayrim fikr va mulohazalarini bildirib o'tadi[1].

NATIJALAR(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).

Ayolning ilohiy obrazda namoyon bo'lishi S.P.Tolstov Xorazmda suv ilohasi obrazini Amudaryoning timsolida ifodalab, ayolning tabiat va hayot bilan bog'liqligini ko'rsatgan[12]. Bu ayol obrazining kosmik va hosildorlik funksiyasi mavjud bo'lganini anglatadi.

Bronza davridagi diniy ramzlar V.M.Masson va V.I.Sarianidiy topgan Anov, Namozgohtepa, Qoratepa yodgorliklarida ayol haykalchalar ko'plab aniqlangan. Ular terrakota texnikasida yasalgan bo'lib, hosildorlik, tug'ilish, himoya kabi ma'nolarni ifodalagan[7].

Marg'iyyona mintaqasidagi ayol ma'budalari G.A.Pugachenkova Gyaurqal'a yodgorligida topilgan ayol ma'budasining diniy va mifologik tahlilini bergen[9]. Bu haykalcha hududdagi qadimgi ayollar kultining yuksak darajada rivojlangandan dalolat beradi.

Terrakota tahlilining tizimlashtirilishi V.M.Masson va V.I.Sarianidining "Среднеазиатская терракота эпохи бронзы" asarida ayol haykalchalarining turlari, uslublari, ramziy ma'nolari to'g'risida batafsil tasnif va interpretatsiya berilgan[8].

Petrogliflarda ayol obrazining aks etishi M. Xo'janazarov[14] va Y.A.Sherlarning[15] petrogliflar haqidagi ishlari qadimgi rasmiy san'atda ham ayol obrazining muhim rol o'yunganini ko'rsatadi (masalan, Xo'jakent, Qoraqiyasoy).

Islomdan oldingi diniy amaliyotlar G.P.Snesarevning "Реликты домусульманских верований" asarida ayollar bilan bog'liq diniy marosimlar, tug'ilish, to'y, o'lim bilan bog'liq urfatlar, onalik kultining davomiyligi ko'rsatiladi.

Hozirgi davrdagi arxeologik yondashuvlar R.Suleymanov, O.Mamirov[6], A.Xolmatov[13], Y.Gordeyeva[3] kabilar olib borgan arxeologik ishlar natijasida yangi topilmalar – sopol haykalchalar, diniy belgilangan idishlar topilgan va zamonaviy tahlillar asosida qadimiy ayol kultining yangi yo'nalishlari oshib berilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION). Turon arxeologiyasidagi ayol obraziga oid topilmalar diniy, madaniy va ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi jamiyatlarda ayollar hayot manbai, himoyachi kuch va hosildorlik timsoli sifatida ilohiy darajaga ko'tarilgan. Ushbu obrazlarning arxeologik va etnografik jihatdan tadqiqi qadimiy e'tiqodlarning zamonaviy madaniyatdagi aksini ham yoritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES):

1. Frédérique Brunet. Les figurines en Asie centrale du Chalcolithique au Bronze ancien (V e - IV e millénaire). Étude techno-typologique d'ateliers de production au Turkménistan // Figurines féminines nues. Proche-Orient, Égypte, Nubie, Méditerranée orientale, Asie centrale (VIIIe millénaire av. J.-C. – ive siècle ap. J.-C.). Actes du colloque de Strasbourg (25-26 juin 2015). – Paris, 2020. – 152 p.
2. Антонова Е.В. Антропоморфная скульптура древних земледельцев Передней и Средней Азии. – М., 1977. – 229 с.
3. Гордеева Е.А. Ранние этапы духовной жизни Средней Азии (VII – пер. пол. I тысячелетия до н.э.). – Ташкент, 2021. – 148 с.
4. Горшунова О.В. Женское паломничество к святым местам (по материалам Ферганской долины) // Итоги полевых исследований. – М., 2000. – С. 23.
5. Кожин П.М., Сарианиди В.И. Змея в культовой символике анаусских племен. // История, археология и этнография Средней Азии. – М., 1968. – С. 35-40.
6. Мамиров О.У. Ўрта Осиё коропластикасида аёллар образи (Эски Ховос ёдгорлигидан топилган аёл маъбуда терракотаси мисолида) // O'zbekiston arxeologiyasi. – 2016. – № 1. – Б. 99-104.
7. Массон В.М. О культе женского божества у анаусских племен. // КСИИМК. № 73. – М.-Л., 1959. – С. 14-20.
8. Массон В.М., Сарианиди В.И. Среднеазиатская терракота эпохи бронзы. Опыт классификации и интерпретации. – М., 1973. – С. 208.
9. Пугаченкова Г.А. Маргианская богиня // СА. – М., 1959. – С. 114-140.
10. Сарианиди В.И. Культовые здания поселений анаусской культуры // СА. – М., 1962. – № 1. – С. 44-56.
11. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – 338.
12. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. М.: Издание МГУ, 1948. – 352 с., 89 табл. 110 рис.
13. Холматов А.Н. Нурота тоғ тизмаси қоятош расмлари техника-типологияси ва тарихий таҳлили. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2019. – 169 б.
14. Хужаназаров М.М. Наскальные изображения Ходжакента и Каракиясая. – Самарқанд, 1995. – 173 с.
15. Шер Я.А. Петроглифы Средней и Центральной Азии. – М., 1980. – 328 с.